



QISHLOQ XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHDA INNOVATSION VA ILMY-ISHLAB CHIQUARISH SALOHIYATINING ROLI

THE ROLE OF INNOVATION AND SCIENTIFIC-PRODUCTION POTENTIAL IN FINANCING AGRICULTURE

**¹Babadjanov Abdirashid
Musayevich**

¹PhD., Toshkent amaliy fanlar universiteti, "Bank va moliya" kafedrası dotsenti. **E-mail:** purbobo@mail.ru **ORCID:** 0000-0003-0164-0475

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada agrar sohaning innovatsion va ilmiy-ishlab chiqarish salohiyati hamda innovatsiyalarning nazariy, uslubiy va metodologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish salohiyati va uni moliyalashtirish bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan.

Eng. - This article explores the innovative and scientific-productive potential of the agricultural sector, as well as the theoretical, methodological, and procedural foundations of innovation. Additionally, it analyzes the production potential of agriculture and issues related to its financing.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *agrar soha, innovatsion salohiyat, ilmiy salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiyot.*
❖ *agricultural sector, innovation potential, scientific potential, production capacity, economy.*

Kirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida qishloq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror va uzluksiz ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda agrar sohaning innovatsion va ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirish muhim o'rin tutmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini tubdan takomillashtirish, agrar ta'lim tizimini 2030-yilgacha mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasi asosida modernizatsiya qilish va ushbu strategiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish" ko'zda tutilgan [1].

Qishloq joylarini barqaror taraqqiyotini asosiy omili qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishdir. Ilmiy

salohiyatni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini innovatsion modernizatsiya qilishning eng muhim manbai hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, ilmiy bilimlardan foydalanish yuqori texnologiyali bozorlarda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Ilmiy salohiyatning eng muhim ko'rsatkichi - bu to'plangan ilmiy bilimlarning hajmi va sifati, shuningdek, ularni amaliyotda qo'llashga tayyorgarlik darajasidir. Ilmiy salohiyat, shu bilan birga, tadqiqot va ishlanmalarning boshqaruv tizimi, muhim ilmiy vazifalarni hal etish bo'yicha sa'y-harakatlarning kontsentratsiyasi hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi ixtisoslashuv va hamkorlik darajasiga ham bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Respublikadagi agrar salohiyat va qishloq xo'jaligini moliyalashtirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan.

Innovatsion salohiyat mazmunini o'rganishda rus olimi D.I. Kakurin ta'kidlaganidek, uni oddiy resurslar to'plami sifatida talqin qilish noto'g'ri bo'ladi, chunki bir xil hajmdagi iqtisodiy resurslar turli sharoitlarda qo'llanilganda, bir xil iqtisodiy natijalarni bermaydi [2].

V.I. Abramovning fikricha, innovatsion salohiyatni baholashda indeks tahlili usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuvning mohiyati — innovatorning bilimlari, ko'nikmalari, g'oyalari va salohiyatini hisobga olgan holda uning innovatsion imkoniyatlarini iqtisodiy va matematik model asosida baholashdan iboratdir [3].

Agrar sohadagi ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish darajasi va uning maqbulligi qishloq xo'jaligi ilmiy salohiyatining samarali faoliyat yuritishida muhim shart va omil hisoblanadi. Bunda moliyaviy ta'minot darajasi shunday bo'lishi kerakki, u agrar fan oldiga qo'yilgan strategik vazifalarni samarali hal etish imkonini berishi lozim. Mazkur moliyaviy mexanizm agrar soha faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning miqdoriy ko'rsatkichlari cheklangan resurslar doirasida davlat ilmiy siyosatiga muvofiq ravishda aniqlanishi lozim.

Kelgusida moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligini saqlab qolgan holda, davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish ustuvorligini ta'minlash zarur. Bunda ajratiladigan mablag'lardan foydalanish qat'iy ravishda maqsadli yo'naltirilishi, ya'ni ular ilmiy muassasalarning o'ziga emas, balki aniq ilmiy-texnik dasturlar va muammolarning yechimiga yo'naltirilishi lozim. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning bir qismini faqat texnologik innovatsiyalar emas, balki institutsional va tashkiliy yangiliklarni ishlab

chiqish va joriy etishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Shu asosda, agrar fan mamlakatning yetakchi qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti uchun innovatsion rivojlanishni ta'minlovchi tayanch ilmiy salohiyat sifatida shakllanishi zarur.

Parametrlashtirish nuqtai nazaridan innovatsion salohiyatni baholashning eng keng qamrovli usullaridan biri bu — Imaykina usuli bo'lib, u innovatsion salohiyatni tarkibiy qismlar asosida tahlil qilish mezonlarini ishlab chiqqan [4].

Masalan, Kulagina fikricha, innovatsion salohiyat samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri aniq parametrlar orqali baholanishi kerak. Uning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish salohiyatini tahlil qilish innovatsion jarayonlarning real natijalarini o'lchashga imkon beradi [5].

Pavlova ko'plab tadqiqotlarda "innovatsion salohiyat" tushunchasi innovatsion rivojlanishning kontseptual asosi sifatida talqin etiladi [6].

Rus olimi Ushachev esa, innovatsion salohiyatni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida zarur bo'lgan moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy, texnik va boshqa resurslarning kompleks yig'indisi sifatida ta'riflaydi [7].

Erina esa ilmiy axborot, innovatsion faoliyat va ilmiy maktablarning milliy hamda xalqaro miqyosdagi o'rnini innovatsion taraqqiyot manbai sifatida ko'radi [8].

Sozaeva fikricha, korxonaning o'sish istiqbollari, olim va mutaxassislarning analitik va kontseptual vazifalarni hal qilish salohiyati bilan chambarchas bog'liq [9].

Shuvaeva esa ishlab chiqarish salohiyatini — uni takomillashtirish, rivojlantirish va oqilona foydalanish uchun investitsiyalarning samaradorligi bilan bog'liq zaxira sifatida ko'radi. Bu holat agrar resurslar bozori faoliyatini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi [10].

Molchanenko esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyatini miqdoriy va sifatli jihatdan baholanishi kerak bo'lgan murakkab tizim sifatida ta'riflaydi. Bu esa agrar sohadagi

o'ziga xos munosabatlarni chuqur o'rganishni taqozo etadi [11].

Agrar fanning rivojlanishi va ilmiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishi agrar iqtisodiyotning barqarorligi bilan bevosita bog'liq. Agrar sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini doimiy va tizimli olib borish, qishloq xo'jaligida innovatsion va ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va uni yanada rivojlantirish lozim.

Qishloq xo'jaligi salohiyatidan to'laonli foydalanish mamlakatning oziq-ovqat va xomashyo ehtiyojlarini qondirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda ushbu tarmoq samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Agrar sohaning jadal va barqaror rivojlanishi, avvalo, innovatsiyalarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, agrar sohaning salohiyati nafaqat innovatsion resurslarni shakllantirish, balki ilmiy natijalarni joriy etish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Buning uchun esa uzluksiz moliyalashtirish va zamonaviy infratuzilmalarni rivojlantirish muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat tashkilotlarining barqaror iqtisodiy o'sishi, birinchi navbatda, innovatsiyalarga asoslanadi. Biroq bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar yetarli emas. Ko'pchilik qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy mustaqillikka ega bo'lmay, kredit olish imkoniyatlaridan chetda qolmoqda. Bunday sharoitda ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash va innovatsion rivojlanishni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri bu — ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada asosan nazariy yondashuvlar va holat tahlili metodlaridan keng foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakat agrar sohasida innovatsion oqimning kuchayishi, uzluksiz texnologik takomillashtirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni eksport qilish orqali texnologiyaga asoslangan innovatsion iqtisodiyot shakllanmoqda. Ushbu sohaning iqtisodiy rivojlanishida innovatsiyalar, ilmiy-ishlab chiqarish salohiyati va hududiy joylashuv muhim rol o'ynaydi.

Respublikada innovatsion faoliyat ishtirokchilarining intellektual faolligini rag'batlantirish, ularning mehnatini xalqaro mezonlar asosida baholash uchun zarur bo'lgan qonunchilik va iqtisodiy mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan.

Ilmiy ishlanmalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va ulardan amaliy foyda olish imkoniyatlari e'tibordan chetda qolmoqda. Natijada, intellektual mulk huquqini tasdiqlovchi sertifikatlarni olish jarayonlarida muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa ilmiy salohiyatdan to'laonli foydalanishni cheklab, innovatsiyalarni iqtisodiyotga olib kirish jarayonini sekinlashtiradi. Shu bilan birga, patentlash jarayonining uslubiy asoslari ham takomillashtirilishga muhtoj. Agrar sohada innovatsion faoliyatni faollashtirish va ilmiy kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish uchun maxsus jamg'armalar tashkil etilishi zarur.

Agrar sohadagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, deyarli barcha hududlarda bu omillarni hisobga olgan holda samarali yechimlar, ilmiy asoslangan usullar va ekspert tavsiyalari qo'llaniladi. Soha uchun samarali yechimlar optimal yechimlardan farq qiladi, chunki, ular ijtimoiy va iqtisodiy foydali natijalarni ta'minlaydi.

Yer – mamlakatning asosiy boyligi va boshlang'ich resursi bo'lib, qishloq xo'jaligi hamda boshqa barcha tarmoqlarni rivojlantirish uchun asosiy poydevor sanaladi. Shu bilan birga, u agrar sohaga xos ishlab chiqarish resursi hisoblanadi [12].

Qishloq xo'jaligida samarali echimlarni topishning ikki asosiy usuli mavjud:

1. Nazorat harakatlarining o'zgarishi asosidagi yondashuv – bunda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimlarini loyihalash, real vaqt rejimida tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish, natijalarni tahlil qilish va oldingi qarorlarni keyingi bosqichda tuzatish orqali samaradorlikka erishiladi.

2. Matematik modellashirish yondashuvi – bunda mavjud tizim yoki jarayonning matematik ekvivalentini topish orqali, ilg'or algoritmlar va usullar yordamida iqtisodiy-matematik model yaratiladi va optimal yechimlar aniqlanadi.

Har ikki usulda ham yuqori darajadagi intellektual faoliyat talab etiladi. Birinchi holatda monitoring ma'lumotlarini yangicha tahlil qilish, boshqaruv harakatlari samaradorligini baholash va tizim samaradorligini maksimal darajada oshirish uchun ushbu ma'lumotlardan foydalanish muhim. Ikkinchi holatda esa harakat modelini ishlab chiqish, boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlaydigan kompyuter tizimini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

Agrar fanda ishlab chiqarish salohiyatini baholashning uchta asosiy usuli mavjud: qiymat, indeks va ball usullari. Ular amaliy jihatdan eng maqbul yondashuvlar sifatida e'tirof etiladi.

Ishlab chiqarish salohiyatini baholash – bu mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish, g'oyani mahsulot shaklida modellashirish hamda uni bozorga chiqarishga tayyorlik darajasini aniqlash jarayonidir.

Eng ko'p qo'llaniladigan qiymat usuli salohiyatni tashkil qiluvchi elementlarning har biri qiymatini hisoblash, keyin esa umumiy ishlab chiqarish salohiyati qiymatini aniqlashga asoslanadi. Bunda asosiy vositalarning qiymati ularning amortizatsiyasini hisobga olgan holda, almashtirish qiymatiga asoslangan o'rtacha yillik qiymat bo'yicha aniqlanadi.

Ishlab chiqarish salohiyatining qiymatini aniqlashda quyidagi beshta asosiy yondashuv qo'llaniladi:

Ekvivalent usul;

Funksional usul;

Korrelyatsion usul;

Qiymat yondashuvi;

Aralash yoki kombinatsiyalangan usul.

Ekvivalent usul ishlab chiqarish salohiyati elementlarining qiymatini baholashga asoslangan yondashuv bo'lib, elementlarning o'zaro almashinish (ekvivalentlik) xususiyatiga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu usul orqali umumiy ishlab chiqarish salohiyati qiymatini uning tarkibiy qismlaridan birining qiymati orqali ifodalash mumkin bo'ladi.

Funksional usul ishlab chiqarish salohiyatining qiymati ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga teng ekanligini va uning alohida elementlarining qiymatlari ushbu elementlarni ishlab chiqarishda hal qiluvchi bo'lgan mahsulotlarning o'ziga xos og'irliklari orqali aniqlanishini nazarda tutadi. Ishlab chiqarish salohiyatini aniqlashning ushbu usuli eng sodda va aniq bo'lib, foydalanish uchun qulay hisoblanadi.

Korrelyatsiya usuli ishlab chiqarish salohiyatining qiymatini aniqlashda turli xil korrelyatsiya va regressiya modellaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu usul odatda milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlarining ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

Eng ko'p qo'llaniladigan qiymat usuli ishlab chiqarish salohiyatining har bir elementining qiymatini aniqlash, so'ngra ularning yig'indisi orqali umumiy salohiyat qiymatini hisoblashni nazarda tutadi. Ushbu usul yordamida korxonaning ishlab chiqarish salohiyati tarkibini ham aniqlash mumkin. Bunda salohiyatni tashkil etuvchi individual resurslarning qiymati umumiy salohiyat qiymatiga nisbatan foizda ifodalanadi.

Aralash (yoki kombinatsiyalangan) usul esa ishlab chiqarish salohiyatini baholashda qiymat ko'rsatkichlarini boshqa baholash yondashuvlari bilan uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi. Bu usul murakkab va ko'p omilli tizimlar uchun yanada aniqroq natijalar beradi.

Indeks usuli agrar soha korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini baholashda alohida ahamiyatga ega. Uning mohiyati shundaki, korxonaning ishlab chiqarish salohiyatining har bir elementi o'ziga mos elementning barcha o'rganilayotgan korxonalar bo'yicha o'rtacha qiymati bilan taqqoslanadi. Bu orqali u yoki bu resurs bo'yicha korxonaning holati nisbiy jihatdan baholanadi.

Ball usuli esa ba'zan qishloq xo'jaligi korxonalarida qo'llaniladi. Ushbu usul qishloq xo'jaligi yerlarining fizik maydoni va ularning kadastr qiymatiga asoslanadi. Baholash natijasi yer resurslarining umumiy ball ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, bu yerlarning miqdori va sifati asosida aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini baholash usuli — ishlab chiqarish salohiyatini aniqlashning eng oddiy shakllaridan biridir. Uning mohiyati shundan iboratki, har bir agrar korxona yoki butun bir hudud bo'yicha yerlarning fizik maydoni tegishli kadastr qiymatiga ko'paytiriladi. Natijada umumiy ball ko'rinishida salohiyat aniqlanadi. Bu yondashuv yerlarning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini birlashtirib, ishlab chiqarish imkoniyatlarini ifodalab beradi.

Zambrjiskayaning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish salohiyatini baholashda qo'llaniladigan usullarning keyingi bosqichi — bu salohiyatni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarga koeffitsiyent-og'irliklarni belgilashdir [13].

Mazkur usullar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, mavjud resurslar va imkoniyatlarni chuqur tahlil qilmasdan turib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyatini baholash va rivojlantirish

dasturlarini ishlab chiqish mushkul bo'ladi. Shuning uchun, umumiy ishlab chiqarish salohiyatini aniqlashda to'g'ri uslubiy yondashuvni tanlash nazariya va amaliyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Agrar sohada faoliyat yuritadigan barcha korxonalarning iqtisodiy hayotiy tsikli innovatsion salohiyatni baholash va uning raqobatbardoshligini aniqlashning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi hamda mavjud iqtisodiy salohiyatdan foydalanish natijasi uni yanada rivojlantirish uchun asosdir.

Agrar innovatsion salohiyat — bu qishloq xo'jaligi iqtisodiy salohiyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, mavjud resurslar asosida shakllanadi. U iqtisodiy salohiyatning barcha tarkibiy qismlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, korxonaning innovatsion faoliyat olib borish imkoniyatlarini, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini ta'minlaydi hamda innovatsion strategiyani amalga oshirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining innovatsion salohiyatini o'rganish, resurslar cheklangan sharoitda ularni samarali boshqarish orqali mintaqaviy agrosanoat majmualarining barqaror va samarali ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga erishish imkonini beradi. Ushbu tahlil qaror qabul qilishda asosli tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Innovatsion siyosat esa, ichki va tashqi omillarni cheklashni, shu bilan birga innovatsion salohiyatni shakllantirish yo'llarini aniqlashni ko'zda tutadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining innovatsion salohiyati ilmiy bilimlarni tijoratlashtirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish asosida yaratilgan mavjud va yangi agrosanoat vositalari majmui sifatida baholanadi. Ushbu vositalarning agrar ishlab chiqarishga ta'siri innovatsion texnologiyalarni joriy qilish jarayonida namoyon bo'ladi.

Innovatsion salohiyatni maqsadli yo'naltirish nuqtai nazardan baholashda yondashuvlarning yana bir tasnifi mavjud. Bu

yondashuvlar, asosan, korxonaning innovatsion salohiyati qanday darajada belgilangan maqsadlarga xizmat qilayotganini aniqlashga qaratilgan. Maqsad mezoniga ko'ra, quyidagi ikki asosiy yondashuv ajratiladi:

Ichki maqsadlar doirasidagi baholash – bunda innovatsion salohiyat, birinchi navbatda, korxonaning o'z oldiga qo'ygan ichki strategik maqsadlariga erishish darajasi bilan baholanadi;

Tashqi maqsadlar doirasidagi baholash – bu yondashuvda innovatsion salohiyat korxonaning tashqi muhitdagi, ya'ni joylashgan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga, xususan, aholining hayot sifatini yaxshilashga qo'shayotgan hissasi orqali baholanadi.

Tadqiqot natijasida innovatsion salohiyatni baholashda mantiqiy yo'nalishga asoslangan yondashuvlar tasnifi taklif etildi. Ushbu tasnif doirasida quyidagi uchta asosiy yondashuv ajratiladi:

Ijobiy yondashuvda baholash natijalari innovatsion salohiyatning rivojlanish darajasi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Ya'ni, baholash natijalari qanchalik yuqori bo'lsa, innovatsion salohiyat darajasi shunchalik yuqori bo'ladi va undan foydalanish korxona faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy ishlanmalar va amaliy tadqiqotlarning aksariyati aynan ushbu yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Indikativ yondashuv mavjud boshqaruv usullarining innovatsiyalarni yaratish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatadigan ko'rsatkichlar qiymatini aniqlashga qaratilgan. Bu usullar, odatda, iqtisodiy xavfsizlikni baholashda qo'llaniladi, ammo innovatsion salohiyatni baholashda kamdan-kam hollarda ishlatiladi.

Birlashgan (kompleks) yondashuvda avval innovatsion salohiyatni boshqarish uchun zarur shart-sharoitlarning mavjudligi indikativ yondashuv asosida baholanadi, so'ngra innovatsion salohiyatning rivojlanish darajasi ijobiy yondashuv vositasida aniqlanadi.

Innovatsion salohiyatni baholashda ijobiy ko'rsatkichlarning quyidagi uchta guruhini ajratish taklif etiladi:

Kirish ko'rsatkichlari – korxonaning mavjud ichki resurslari va tashqi imkoniyatlarini aks ettiradi hamda innovatsion salohiyat shakllanishiga xizmat qiladi.

Chiqish ko'rsatkichlari – innovatsion salohiyat yordamida erishilgan natijalarni, ya'ni korxonaning amaliy yutuqlarini ifodalaydi.

Tajriba (effektivlik) ko'rsatkichlari – innovatsion salohiyatga ega operatsiyalarning qanchalik samarali amalga oshirilganini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu ko'rsatkichlar toifasi innovatsion salohiyatning sifat va miqdoriy xususiyatlarini, shuningdek, uni ma'lum natijalarga erishish yo'lida qanday boshqarilayotganini ifodalovchi boshqaruv qarorini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu – mavjud muqobil yoki kombinatsiyalangan baholash to'plami orasida innovatsion salohiyatga ega operatsiyalarni tanlash jarayonidir.

Innovatsion nuqtai nazardan, korxonaning tashqi muhitini va innovatsion salohiyatni tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlar aniqlangan. Ular jumlasiga agrar mahsulotlar tarkibidagi innovatsion moddalarning nisbati va bozorning innovatsion mahsulotlarga nisbatan sezuvchanlik koeffitsienti kiradi. Shu o'rinda qayd etish joizki, hozirgi kunda innovatsion salohiyatni baholash va boshqarish bo'yicha yetarli darajada shakllangan kompleks metodologiya mavjud emas. Shuning uchun uni aniqlashda yaxlit sifat ko'rsatkichlariga asoslangan yondashuvlardan foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda [14].

Ilmiy muassasalarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ayrim jihatdan ilmiy salohiyatning rivojlanishiga ijobiy natijalar bergan bo'lsa-da, ilmiy kadrlar tayyorlash va ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha malakasini oshirish borasida hali yetarli darajadagi yutuqlarga erishilmagan. Buning asosiy sabablari ilmiy tadqiqotlarni

moliyalashtirish darajasining pasayishi, ilmiy xodimlar mehnat haqlarining boshqa tarmoqlarga nisbatan pastligi hisoblanadi. Ko'plab tadqiqot ishlari buyurtmachi ehtiyojidan kelib chiqib olib boriladi. Mavjud ilmiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi esa zamonaviy ehtiyojlarga mos ilmiy yechimlar ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Zvolinskiy fikricha, tarmoq samaradorligi uchun bozor ishtirokchilari axborot va iqtisodiy bilimlar bilan ta'minlanishi, shuningdek, ilmiy manbalarga ega bo'lishi zarur. Bunday holda ilmiy salohiyat mehnat bozorini tartibga soluvchi vositalardan biri sifatida xizmat qiladi [15].

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti misolida tahlil qiladigan bo'lsak, institutda jami 104 nafar xodim faoliyat yuritadi, shundan 58 nafari ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanadi. Ilmiy darajaga ega xodimlar soni 33 nafarni (57%) tashkil etadi, jumladan:

fan doktorlari (DSc) – 11 nafar (19%);

fan nomzodlari – 10 nafar (17%);

falsafa doktorlari (PhD) – 12 nafar (21%);

ilmiy darajaga ega bo'lmaganlar – 25 nafar (43%).

Ilmiy darajaga ega tadqiqotchilar sonining yetarli emasligi olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Institutning umumiy ilmiy salohiyati bugungi kunda 50 foiz darajasida baholanmoqda.

Mazkur institut qishloq xo'jaligi sohasida mutaxassislar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda, agrar sohani rivojlantirishda ilmiy ta'minot tizimi asosiy omillardan biriga aylanishi zarur.

Bizning fikrimizcha, ilmiy muassasalarni ilmiy darajaga ega bo'lgan malakali kadrlar bilan ta'minlash qishloq va suv xo'jaligining ilmiy salohiyatini samarali boshqarishning muhim shartidir. Buning uchun ilmiy-tadqiqot institutlarining tarkibiy tuzilmasi, moddiy-texnik bazasi, huquqiy maqomi va moliyalashtirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zarur.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari bir qator funksiyalarni bajaradi, jumladan: o'lchov, rag'batlantirish va tartibga solish. O'lchov funksiyasi boshqaruv natijalarini tahlil qilish imkonini beradi hamda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv orqali quyidagi iqtisodiy muammolarni hal etish mumkin:

fermer xo'jaliklari va hududlar kesimida ishlab chiqarish salohiyatini baholash;

mavjud resurslar hajmini aniqlash va ularning foydalanish shartlari hamda samaradorligini umumlashtirib baholash;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va baholash mezonlarini takomillashtirish.

Samarali ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari sifatida yalpi mahsulot hajmi, sof daromad va foyda olinishi mumkin. Rag'batlantiruvchi funktsiya esa fermer xo'jaliklarida mavjud zaxiralarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish va zaxiralardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish uchun asos yaratadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish salohiyatining rag'batlantiruvchi mexanizmlari mahsulot zonalari va mahsulot turlariga mos narxlar nisbatini aniqlashni optimallashtirishga yordam beradi.

Iqtisodiy munosabatlar tizimi esa normativ asosda shakllanishi lozim. Bu yondashuv iqtisodiy aloqalarning barqaror o'sishini ta'minlaydi hamda jamiyatning umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Fermer xo'jaliklari o'rtasidagi hisob-kitoblar obyektiv mezonlarga, ya'ni har bir xo'jalikning mavjud imkoniyatlariga asoslanishi zarur. Bular yer, mehnat va moddiy resurslar miqdori va sifati bilan belgilanadigan resurs salohiyati asosida aniqlanadi.

Shu munosabat bilan davlat tomonidan narxlarni tartibga solish mexanizmini kuchaytirish lozim. Bu esa fermerlar o'rtasida

iqtisodiy tenglikni ta'minlashga, qishloq aholisining ijtimoiy holatini yaxshilashga hamda ularning ishlab chiqarish salohiyatini umumlashtirib baholashga xizmat qiladi.

Ilm-fan iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi manbai, agrar soha va ta'limning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. U ilmiy faoliyat orqali aholining intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa dolzarb muammolarni hal etishda mahalliy hamda jahon ilm-fani va ilg'or texnologiyalari yutuqlaridan foydalanishni ta'minlaydi.

Innovatsiya — bu jarayon sifatida qaralishi lozim bo'lgan tushunchadir, shu sababli u bilan bog'liq muammolarni tizimli va kompleks yondashuv asosida hal qilish maqsadga muvofiqdir [16].

Innovatsion salohiyat qishloq xo'jaligi korxonasining iqtisodiy salohiyatining barcha tarkibiy qismlari bilan bevosita bog'liqdir. Har bir iqtisodiy komponent innovatsion xarakterga ega bo'lib, bu korxonaning umumiy innovatsion salohiyatini shakllantiradi. Shunday qilib, iqtisodiy salohiyatning tuzilmasi qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion salohiyatini baholash uslubiyatini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Agrar salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar aynan ushbu salohiyatni to'g'ri baholashga asoslangan bo'lishi lozim. Aks holda, ilmiy izlanishlar noto'g'ri yo'nalishda olib borilishi mumkin va natijalar ishonchsiz bo'lib chiqadi [17].

Qishloq xo'jaligida ilmiy salohiyat darajasi va uning rivojlanish istiqbollari ushbu sohaga oid ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalarning mavjudligiga bevosita bog'liqdir. Ilmiy salohiyat mamlakatda mavjud resurslar va ilmiy infratuzilmaning yig'indisi sifatida qaraladi va fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarish, joriy etish hamda tijoratlashtirish imkonini beradi.

Ilmiy salohiyatni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati yangi texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Korxonalar zamonaviy ilmiy ishlanmalar va yuqori texnologiyali uskunalar bilan to'liq ta'minlanmaguncha, ularning xalqaro innovatsiyalar bilan raqobatlasha olishi qiyin. Shu sababli, muhim va istiqbolli investitsiya loyihalarini amaliyotga joriy etish, innovatsion faoliyat uchun zarur shart-sharoit va muhit yaratish, innovatsion bozorni shakllantirish bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Sohada fan-texnika yutuqlarini joriy etishni jadallashtirish borasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ilmiy kadrlar tayyorlash va ularni bozor sharoitida tadqiqot olib borishga tayyorlash zarur [18].

Ilmiy salohiyat mintaqaviy rivojlanish muammolarini hal etishda sinergetik ta'sir ko'rsatadi. U yangi bilimlarni yaratadi, ularni amaliyotda sinovdan o'tkazadi [19].

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining uzviyligi, mavjud texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, ularni yangi, ilg'or texnologiyalar bilan boyitish orqali mahsulot sifatini oshirish mumkin.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarish salohiyatining aniq ta'rifi mavjud emas. Turli iqtisodchilar uni turlicha talqin qiladilar. Ba'zilar uni korxonada mavjud bo'lgan oddiy mehnat, moddiy va yer resurslari to'plami sifatida ko'rsatadi. Ya'ni, ular "resurs salohiyati" va "ishlab chiqarish salohiyati" tushunchalarini bir-biriga yaqinlashtirib qo'llaydilar [20].

Aslida, ishlab chiqarish salohiyati — bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining organik jihatdan o'zaro bog'liq resurslari: mehnat vositalari, mehnat ob'ektlari va ishchi kuchining yagona tizimidir. U ishlab chiqarishning ilmiy asoslangan optimal hajmini ifodalaydi. Bu hajmga nafaqat ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish

orqali, balki xarajatlarni boshqarish darajasiga ega bo'lgan korxonalar va mahalliy hokimiyat organlarining faoliyat natijasi orqali ham erishiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer — asosiy va o'ziga xos ishlab chiqarish vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirishning muhim manbai sifatida agrar sohaning kadrlar hamda ilmiy xodimlar salohiyati katta ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar va ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatining quyidagi muammolarini hal qilishi zarur:

Qishloq xo'jaligining ilmiy-texnologik taraqqiyoti uchun ilmiy salohiyatni shakllantirish;

Ilmiy muassasalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy faoliyat natijalarining ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash;

Fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan ilmiy ishlanmalarni joriy etishda eng qulay texnologiyalarga o'tish uchun innovatsion salohiyatni rivojlantirish;

Agrar sohada ilg'or va innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlarida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish.

Agrar sohadagi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni kengaytirish maqsadida, uning ilmiy salohiyatini mustahkamlash bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqilgan: mamlakatimiz agrar sohasida innovatsion faoliyatni faollashtirish va ilmiy salohiyatdan samarali foydalanish uchun ilmiy xodimlarni rag'batlantirish zarur. Ushbu sohada fundamental bilimlarga ega bo'lish, raqobatbardosh ilmiy ishlanmalarni yaratish, shuningdek, ta'lim, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy-texnologik qo'llab-quvvatlash uchun qulay sharoitlar yaratish talab etiladi. Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy yutuqlar asosida kompleks tadqiqotlar olib borish muhimdir. Shunga asoslanib, ishlab chiqilgan usul va metodlar qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini baholash imkonini beradi. Taklif etilayotgan usul korxonalarning boshlang'ich resurslarini bir xil klasterlarga bo'lish va har bir klaster uchun mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini hisoblashga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4795-sonli qarori. 2020-yil 30-iyul.
2. Kokurin, D.I. Innovatsionnaya deyatelnost [tekst]: monografiya / I.D. Kokurin. – Moskva.: Ekzamen, 2001. – 576 p.
3. Abramov V. I. Metodologiya otsenki innovatsionnogo potentsiala predpriyatiya // Izvestiya visshix uchebnix zavedeniy. Povoljskiy region. Obtshestvennye nauki. 2012. – № 4 (24). – Pp. 130-137.
4. Imaykina O. I. Analiz innovatsionnogo potentsiala predpriyatiya kak instrument opredeleniya ego vnutrennix vozmozhnostey // Izvestiya visshix uchebnix zavedeniy. Povoljskiy region. Obtshestvennye nauki. 2014. – № 3 (31). – Pp. 211-214.
5. Kulagina N. A., Kozlova E. M. Osnovy otsenki innovatsionnogo potentsiala khozyaystvuyushchego sub'ekta v usloviyakh sovremennykh realiy [Basics of Assessing the Innovative Capacity of an Economic Entity in the Conditions of Modern Realities]. Transportnoe delo Rossii [Russian Transport Business], 2013, No. 6, pp. 19-20.
6. Pavlova, E.G. Innovatsionniy potentsial organizatsiy malogo i srednego biznesa [tekst] / E.G. Pavlova // Problemy upravleniya. 2007. – № 1. – Pp. 81-88.
7. Innovatsionnaya deyatelnost v agrarnom sektore ekonomiki Rossii [tekst] / I.G. Ushachyov, I.T. Trubilin, E.S. Ogloblin, I.S. Sandu. – Moskva.: Koloss, 2007. – 636 p.

8. Erina, A. E. *Upravlenie nauchno-issledovatel'skimi i opitno-konstruktorskimi rabotami // Sovremennoe obtshestvo, obrazovanie i Nauka; Sbornik nauchnix trudov po materialam Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii 31 iyulya 2013 g.: v 5 chastyax. Chast 1; M-vo obr. i nauki RF. - Tambov: Izd-vo TROO "biznes-Nauka-Obtshestvo", 2013. - Pp. 59-62.*
9. Sozaeva T.H., Mambetova F.A. Makitova L.I. *The modern development of agriculture in the conditions of realization of state programs // Economy and Entrepreneurship. 2012. № 11. S. 20.*
10. Shuvaeva S.A. *Employment and human capital in the conditions of development of agrarian relations // the Bulletin of the Institute of Caucasus Peoples' Friendship theory of economics and economic management. 2012. - № 2 (22). - S. 87- 90.*
11. Molchanenko S.A. *Priorities for economic sustainability of rural areas in the aspect of increasing employment // Sustainable Development Strategy of Russia. - 2013. - № 15. - S. 87-91.*
12. Babadjanov Abdirashid Musaevich. *Investment in the Water Supply and Economic Problems: Solutions. Journal of Scientific Research Reports. India. 04 August 2020. 26(6): - Pp. 100-109.*
13. Zambrjiskaya, E. S. *Metodicheskie podxodi k otsenke proizvodstvennogo potentsiala promishlennogo predpriyatiya / E. S. Zambrjiskaya, M. V. Logachyova, A. V. Logachyova. - Tekst: neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. 2015. - № 10 (90). - Pp. 659-664.*
14. Lomakin, A. Yu. *Innovatsionniy potentsial kak osnova strategii razvitiya predpriyatiya / A. Yu. Lomakin. - Tekst: neposredstvenniy // Problemi i perspektivi ekonomiki i upravleniya: materialy II Mejdunar. Nauch. konf. (g. Sankt-Peterburg, iyun 2013 g.). - T.o. - Sankt-Peterburg: Renome, 2013. - Pp. 111-114.*
15. Zvolinsky V.P., Zvolinskaya O.V., Matveeva N.I., Alexandrova T.I. *Scientific potential as a resource for managing the rural labor market. Russian Journal of Labor Economics. 2018. 5. (1). - Pp. 255-268. doi: 10.18334/et.5.1.38889*
16. Babadjanov A.M. *Agricultural research for development: investing in Uzbekistan's future. Journal. "Agricultural Sciences", - USA.: Vol. 4, 2013. No.2, -Pp. 62-65.*
17. Galikeev R.N., Gataullin R.F. *Otsenka agrarnogo potentsiala kak faktora strukturizatsii territoriy//Fundamentalnie issledovaniya. 2016. - № 6-2. - Pp. 366-371.*
18. Babadjanov A.M. *Agrar sohada ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish va moliyalashtirish. // "Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali". -Toshkent: V son. 2019. - Pp. 59-66.*
19. Stukach V.F. *Potentsial nauchnoy shkoli V razvitiy agrarnoy ekonomiki regiona: opit, Problemi [Potential of scientific school is in development of agrarian economy of region: experience, problems], MPRA Paper 73653, University Library of Munich, Germany. 2016.*
20. Jurkina T.A. *Soderjanie ponyatiya "Proizvodstvenniy potentsial" almanax sovremennoy nauki i obrazovaniya. Tambov: Izdatelstvo "Gramota", 2011. № 2 (45). - Pp. 152-154.*